Viloyatyer usti tuzilishi murakkab emas, uning hududi Turon past tekisligiga kiradi. Er sathining nisbatan balandligi daryodan uzoqlashgan sari va janubga tomon biroz ko'tarilib boradi. Bunday geomorfolgik holat va u bilan bog'liqyer osti suvlarining joylanishi aholi manzilgohlari va xo'jalik tarmoqlarini hududiy tashkil qilishga o'z tasirini ko'rsatadi.

Xorazm hududining bunday tuzilishi ayni vaqtda uning qazilma resurslariga boy emasligidan ham darak beradi. Darhaqiqat, buyerda ko'zga ko'rinarli qazilma boyliklar topilmagan. Viloyatda mineral xom-ashyo va yoqilg'i resurslarining o'ta tanqisligi buyerda og'ir sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga to'sqinlik qiladi.

Iqlimi kontinental, namgarchilik kam. Shu sababli qadimdan bu hududda dehqonchilikning rivojlanishi asosan suv, sug'orish inshootlari bilan bog'liq bo'lgan.

Xorazm viloyati cho'l zonasida vohada hamda iqlmi keskin qita iqlimi bo'lgan mo'tadi mintaqa janubida joylashganligi bois cho'l-voha tabiat kompleksi tashkil topgan. Viloyat o'simlik va hayvonot dunyosi Golarktika oblasti o'rta dengiz bo'yi kichik oblastiga qarashli (1-rasm).

**1-rasm. Golarktika zoogeografik oblasti o'rta dengiz bo'yi kichik oblasti (3)**




**Kartosxema muallif tomonidan tayyorlangan**

Bu kichik oblast o’rta dengiz bo’yi, Qora dengiz janubidan to Fors qo’ltig’igacha bo’lgan dengizbo’yi subtropiklari, tropik va mo’tadil mintaqa cho’llari va vohalarini (Pireneya, Apennin, Bolqon, Kichik Osiyo, Arabiston yarimoro’llari, Sahroi Kabir, Eron, o’rta Osiyo cho’llari, ulardagi vohalar ) o’z ichiga oladi.

Viloyat hududining katta qismi Xorazm vohasida joylashgan, atrofini Qoraqum va Qizilqum cho’llari o’rab turadi va shu bois hududida cho’l, cho’l-voha tabiat komplekslari shakllangan. Viloyat hududi Quyi Amudaryo, Qizilqum va Qoraqum tabiiy okruglari oralig’ida joylashgan.

Viloyatda to’qay landshaftlari asosan Amudaryo qayirlarida tarqalgan. To’qayda qamish, qo’g’a, ro’yan, yantoq, buta va daraxtlardan to’rong’il, jiyda, tol, yulg’un,jing’il va boshqalar keng tarqalgan. To’qay o’simliklari, bevosita Amudaryo suv tartibi bilan bog’liq, ayniqsa qamish, qo’g’a kabi gidrofil o’simliklar maydonlari qayirni suv bosishi, vaqtinchalik kichik-kichik ko’llarning vujudga kelishi bilan o’zgarib turadi. Ko’p yillik o’simliklar nisbatan bunday o’zgarishlarga bog’liq emas.

**2-rasm. Cho'lda bahor, Saksovul (bo'yan)** **3-rasm. Shirinmiya**






**manba:** http:G'G'orient-tracking. comG'zapovednik. htm **manba:**https:G'G'ru. wikipedia. orgG'wiki

Viloyatning chap qirg'oq qismining katta qismi madaniy landshaftlar bilan band. Paxta, sholi, bug'doy va boshqa qishloq xo'jalik ekinlari keng maydonlarni egallaydi. Viloyat poliz ekinlari, ayniqsa qovuni bilan mashhur. Ekin maydonlari orasida kichik-kichik ko'llar va qumliklar ancha ko'p. Cho'l hududlarida saksovul, teresken, qum akatsiyasi, qandim, yantoq, ferula, kabi kserofit, sho'rxok hududlarda sho'ra,oqbosh, semizo't, izen, keyreuk, sarsazan, shuvoq, juzg'un, qandim, ayrim joylarida qora saksovul o'sadi, bahorning yomg'irli davrida emerlar va efemeroidlar gullab yashnaydi.

Viloyat sug'orish tizimi atroflarida hamda janubiy qismida sizot va tashlama ko'llar ko'p, ularning bo'ylarida qamish, qo'g'a, o'tlardan turli gidrofil o'simliklar o'sadi, sho'r suvda o'sishga moslashgan. Umuman olganda viloyat hududida 600 dan ortik yovvoyi o'simlik turlari uchraydi. Shuning 250 dan ortig'i qumli joylarda o'sadi (Qurb).

Viloyat hududining chap asosiy qismida paxta, sholi, jo'xori, arpa, bug'doy, makkajo'xori, tariq, mosh, loviya, poliz ekinlari va sabzavotlar ko'p ekiladi. Chorvachilik uchun beda ekish keng tarqalgan. o'ng qirg'oq qismida Tuproqqala massivida ham o'choqsimon sug'orma dehqonchilik mavjud. Viloyatda bog'dorchilik ham yaxshi rivojlangan, meva va uzum yetishtirish sug'orma dehqonchilik tumanlarining hamma joyida olib boriladi.

Aholi sonining ortib borishli barobarida viloyatda yangiyerlarni o'zlashtirilishi, xususan daryo bilan chegaradosh Bog'ot, Xonqa, Urganch Gurlan, Yangibozor tumanlarida yuzlab gektar to'qaylar yo'qotilib ekin maydonlariga aylantirilishi viloyat tabiiy komplekslariga o'zgarishiga olib kelgan, qator o'simlik va hayvonot turlari, kichik-kichik ko'llar yo'qotildi. Qurigan ko'llar o'rnida sho'rxoklar paydo bo'ldi. Bu esa eroziya jarayonining kuchayishiga olib keldi.

Viloyatda tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi va uning qoshidagi o'rmonchilik xo'jaliklarida Amudaryo to'qay landshaftlari, Qoraqum va Qizilqumning cho'l o'rmonlarini himoyalash va maydonini kengaytirish ishlari olib borilmoqda.

Amudaryodagi suvning birmuncha kamayishi, daryo suvining ifloslanishi, to'qay komplekslarida malum o'zgarishlar yasadi. Qayir maydoni va unda o'sadigan gidrofil o'simliklar maydoni kamaydi, to'qaylarga nam kelishi ancha kamaydi. Xorazm vohasida, jumladan viloyat hududida qishloq xo'jaligi va farmatsevtika sanoatida qo'llanilishi mumkin bo'lgan qator o'simliklar o'sadi. Jumladan, sachratqi,iloncho'p, mingbosh,qirqbo'g'im, sassiq kavrak,shirinmiya. Dalachoy,qovul, ittikanak, ermon, qariqiz kabi shifobahsh , qamish, shirinmiya, yantoq, oqbosh kabi yem-xashak maqsadida ishlatilishi uchun yaroqli o'simliklar o'sadi. Shifobahsh o'simliklar orasida shirimiya (bo'yan), sachratqi alohida ajralib turadi. Shirinmiya, mahalliy tilda bo'yan deb ataladi, Amudaryo, kanallar, ariqlar (yop, solma) qirg'oqlarida keng tarqalgan. Dukkakdoshlar oilasiga mansub, ko'p yillik o'tsimon o'simliklar turkumiga kiradi. U sho'rtobyerlarda ekinlar ichida ham o'sadi,ildizida juda ko'p qand moddasi bor. Ildizidan olingan ekstrakt farmatsevtika va oziq-ovqat sanoatida keng qo'llaniladi. Uning ildiz va ildiz poyalarida 25 % ga qadar glitserin bor, u ko'pik xosil qiluvchi modda sifatida oziq-

ovqat sanoatida (pivo pishirishda) hamda surgi dori sifatida ishlatiladi. Ko’p turliyem-xashak sifatida pichan tayyorlashda ishlatiladi. Sachratqi ko’p yillik o’simlik, bo’yi 15-150 sm. Ildizi va bargida katta miqdorda (11%) inulin polisaxaridi mavjud, oqsil sifat moddalar, glikozid, unga achchiq tam beradigan intibin moddasi, tiamin, riboflafin, askorbin kislota, karotin, gullarida kumarin glikozid, sutli sokida achchiq moddalar (laktutsin, laktukolikrin,) urug’ida 15-28 foiz yog’li moy mavjud. Sachratqi qandli diabet bilan kasallangan bemorlar dietik ovqatlanishida yaxshi samara beradi Xalq tabobatida ildizi va tanasi ishtahani oshiruvchi, uyqusizlik, oshqozon-ichak, buyrak va jigar, o’pka, kuli teri va tomir kasalliklarini davolashda ishlatiladi. Em-xashak sifatida qamishning ahamiyati eng katta. Suv havzalari bo’ylaridagi to’qaylarda, kanal, ariq va zaxkashlarda, ko’llarda ko’p tarqalgan. Qamishning bo’yi 4-5 metrgacha boradi. Qamishdan chorvachilikda va aholi qurilish materiali (tom bostirishda qoplama sifatida, chetan devorlar (erganak) qurishda) sifatida keng foydalaniladi. Yantoq viloyatning barcha joylarida keng tarqalgan, suvsiz sharoitga chidamli, shu bois qumliklarda eng ko’p tarqalgan kserofit ko’p yillik o’simliklardan sanaladi. Uning tomirlari yaxshi rivojlangan, 15-20 metr chuqurlikda joylashganyer osti suvlarigachayetib boradi. Cho’l chorvasining muhim ozuqasi sanaladi, gullagan davrida cho’l hududi asalarichiligi uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Yantoq ham xalq tabobatida keng qo’llaniladi, ildizi, tanasi va gulidan damlama tayyorlanib ayrim oshqozon-ichak kasalliklarini (kolit, dizentereya va xokazo) davolashda ham qo’llaniladi. Cho’lda o’suvchi ko’p yillik daraxt saksovul viloyatning Qoraqum cho’li bilan chegaradosh qismlarida ko’p uchraydi. Asosan qum tepaliklarida, kuchsiz rivojlangan tuproqlarda oq saksovul o’sadi. Saksovulning ikkinchi turi – qora saksovul kulrang, gilli, sho’rxok cho’llarda uchraydi. Oq saksovulning bo’yi 1,5-2,5 metr, ayrim hollarda 5 metrgachayetadi. Viloyatning Qoraqumga chegaradosh hududlarida yaqin – yaqingacha o’tin sifatida (2500 -3500 kkal issiqlik beradi) foydalanib kelingan. Ayni vaqtda, qo’y va tuyalar uchun muhim ozuqadir. Saksovul mustahkam ildizi bilan qumlarni ushlab turgani bois, uni kesish taqiqlangan va ixota o’rmonzorlar barpo etishda keng foydalanilmoqda. Viloyatda

o’simlik dunyosining to’qay va cho’l hududlaridagi deyarli barcha turi davlat tomonidan muhofaza ostiga olingan

## II BOB Xorazm viloyatining tuproq-iqlim sharoitlari.

### 2.1. Xorazm vohasini tabiiy geografik holati

Xorazm vohasi Amudaryoning mahsuli bo’lib O’zbekiston, Turkmaniston davlatlari hududida joylashgan, Qoraqum va Qizilqum cho’llari o’rab turadi.

Vohani eng uzun chegarasi janub va g’arb tomonidan Qoraqum cho’liga to’g’ri keladi. Bu qum Kopetdog’ na Kaspiy dengizigaga boradi. Qum asosan uchlamchi davr va qisman bo’r davri jinslaridan tashkil topgan. Usti esa sariq qum tepaliklaridan iborat.

Amudaryoning hozirgi vodiysi asosan uning chap qirg’og’ini egallagan. Vodiyning kengligi bir necha yuz metrdan 7-8 km gacha boradi. Viloyat hududini ko’plab olgan allyuvial yotqizichlar bir necha smdan 20-30 metrgacha yetadi. Xorazm viloyati yer yuzasi tuzilishi jihatidan ikki qismga; dengiz sathidan 100-110 m balandda bo’lgan katta Shimoliy qismga va dengiz sathidan 120-150 m gacha chekka janubiy qismga bo’lish mumkin. Viloyat yer yuzasi asosan tekislikdan iborat, bo’lib, Janubi-Sharqdan shimolga tomon sekin-asta qiyalashib boradi. Vohaning dengiz sathidan o’rtacha balandligi 95-105 m atrofida. Xorazm vohasining g’arbiy va janubiy qismi Qoraqum cho’liga tomon balandlashib boradi.

Tekislikda sayoz chuqurliklar, marzasimon quruq o’zanlar ancha serob. Viloyat relefida balandligi 2-7 metrli inson faoliyati natijasida vujudga kelgan antroopgen relefi shakllari anchagina maydonlarni ishg’ol qiladi. Ular insonning ko’p asrlar jarayokmdagi ariqlarni qazish, kollektorlar chn-qarish faoliyati natijasida vujudga kelgan. Amudaryo vodiysi qirg’oqlari daryo o’zaniga tomon pasayib boradi va atrofidagi yerlarga asta-sekin tutashib ketadi.

Insonning yuz yillar jarayonidagi mehnat faoliyati viloyatning tabiiy yer yuzasini o’zgartirib yuborgan. Sug’orish ishlarining nihoyatda rivojlanganligi,

tuproqlarga ko'p ishlov berilishi tufayli vohaningyer yuzasi ancha tekislanib ketgan.

Qoraqum va Qizilqum cho'llariga chegaradosh bo'lgan joylarida shamol (eol) faoliyatida hosil bo'lgan relef shakllari ham uchraydi. Viloyat hududida allyunial yani daryo faoliyati bilan bog'liq bo'lgan relef shakllari ham anchagina. Keyingi paytlarda Tuyamo'yin suv omborining qurilishi tufayli, daryo keltiradigan unumdor loyqa juda ham kamayib ketdi, bazi joylarga esa umuman kelmasdan qo'ydi. Bu ham voha relefining shakllanishida juda sezilarli ro'l o'ynadi. Ilgari Amudaryo har yili gektariga 120-150 kg Umundor loycha yotqizardi. Vohadagi cho'kindi loyqa qatlamining o'rtacha qalinligi 70-80 metrga yetadi.

Viloyatning shimoliy va sharqiy tomonlarida tabiiy to'siqlarning yo'qligi Arktikadan va Sibirdan sovuq havo massalarining bemalol kirib kelishi uchun chulay imkoniyatlar yaratadi.

Viloyat iqlimi keskin kontinental bo'lib yillik amplituda juda yuqori. Maksimal va minimal haroratlar orasidagi farq 78ogayetadi., Oro'l dengizi viloyat iqlimi tashkil topishida sezilarli ro'l o'ynamaydi. Aksincha voha iqlimining tashkil topishida Qizilqum va Qoraqum cho'llari katta ro'l o'ynaydi. Viloyat hududining qumlar bilan o'ralganligi. havo haroratining 43° 45° darajagacha ko'tarilishigacha imkon yaratadi. Vohada yillik o'rtacha harorat Q12° chekka janubiy qismda 15°gayetadi. Bu ko'rsatkich Urganch shahrida 14°ni tashkil qiladi.

Viloyatning janubiy hududlarida yanvarning o'rtacha harorati -3° qolgan qismlarida -4-5° ga teng. Vohada eng past harorat-32°-33° gacha boradi. Iyulning o'rtacha harorati Q28°, Urganch shahrida esa bu ko'rsatkich 28,5°ga teng. Viloyat hududida yillik sovuqsiz kunlar o'rtacha 200 kunni tashkil etgani holda, chekka janubda 204, shimoliy qismlarda esa 195 kunni tashkil qiladi.

Viloyat hududining shimoldan janubga cho'zilganligi shimol va janubiy hududlar o'rtasida sovuqsiz kunlarning turlicha bo'lishiga olib keladi. Paxta, sholi, makkajo'xori, anjir, uzum qovun, anor va boshqa issiqsevar o'simliklarning barg urib o'sishi uchun haroratlar miqdori yetarli.

Xorazm viloyati iqlimi va tabiati o'ziga xos xususiyatlarga ega. Uning okean

va dengizlardan minglab km uzoqda bo'lganligi uni tipik kontinental o'lkalar qsatoriga kirishiga imkon tug'dirgan. Bu yerda yozning issiq, qishning sovuq kelishi, ob-havoning sutka davomida keskin o'zgarib turishi, yog'in-sochinning kamligi, havoning quruqligi, viloyat iqlimining asosiy xususiyatlaridir.

Iqlimning bu xususiyatlari viloyat hududining geografik o'rniga, quyosh nurlarining tushishiga va yer yuzasining tuzilishiga bog'liq.

Viloyatda yil davomida quyoshli kunlar ko'p bo'lib, yozda quyosh ufqdan ancha baland ko'tariladi. Masalan 22-iyunda Urganchda quyosh ufqdan 71°5 ko'tariladya. 22 dekabrda esa quyoshning ufqdan balandligi 25,5° ga teng bo'ladi. Quyosh nur sochib turadigan davr 2900-2950 soatdan ziyod. Qishda nuyosh nur sochib turadigan davr nur sochishi mumkin bo'lgan davrning 35-50% ni, yozda esa 80-90% ni tashkil qiladi.

Viloyat quyoshli kunlar eng ko'p bo'ladigan o'lkalardan biridir. Buyerda quyosh nur sochib turadigan davr respublikaning boshqa o'lkalariga nisbatan ko'p. Masalan may oyidan oktyabr oyigacha, yani paxta va boshqa qishloq xo'jalik ekinlari pishib yetiladigan vaqtda bu davr viloyat hududining janubida Hazoraspda 1800 soatga, Qohirada esa 1613 soatga teng. Viloyatda yozda quyoshning ufqdan balandligi va quyoshli kunlarning ko'p bo'lganligi sababli ham uning hududi quyosh radiatsiyasiga boy, uning har bir kv myeri 140 kkal issiqlikni qabul qiladi. Buning 20 kiloriyasi iyul oyiga to'g'ri keladi. (1-jadval).

Yillik yalpi radiatsiyaning 70-75% to'g'ri radiatsiya hm-sobiga to'g'ri keladi. Er yuzasi quyoshdan keladigan radiatsiyaning hammasini qabul qilaolmaydi. Uning 25-30%yer yuzasidan qaytadi.

Musbat haroratlar yig'indisi 4000-4400° darajani tashkil qiladi. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, yozda qishdagiga nisbatan 4-5 marta ko'proq issiqlik tushadi. Shuning uchun viloyatda yoz oylarida ob-havo kam o'zgaradi. Qishda esa quyosh radiatsiyasi susayadi va kirib kelgan har bir havo massasi haroratni va umuman ob-havoni tez o'zgartira oladi.

Qish oylarida ob-havo o'zgarishining boshqa sabablari ham bor. Noyabr oyining o'rtasidan to mart oyigacha,yerning nur sochish yo'li bilan yo'qotadigan

issiqligi unga quyoshdan keladigan issiqlikdan oshib ketadi. Bu ham qish oylarining birmuncha sovuq bo'lyashiga malum darajada sabab bo'ladi. Quyosh radiatsiyasi iqlimning tarkib topishida muhim ro'l o'ynashi bilan birga, viloyatning eng yirik tabiiy boyligi hisoblanadi. Natijada viloyatda issiqsevar o'simliklarni yetishtirishga, paxtachilik, bog'dorchilik, uzumchilik, sholichilikni rivojlantirishga imkon beradi. Fan-texnikaning jadal rivojlanishi bilan kelajakda viloyatda quyosh energiyasidan unumli foydalanish imkoniyatlari mavjud.

Viloyat iqlimining tashkil topishiga atmosfera tsirkulyatsiyasi, yani havo massalarining almashinib turishi ham alohida o'rin tutadi. Mamlakatimiz kabi viloyatda hamyerdan 2-3 km dan 12 kmgacha balandlikda asosan g'arbiy va janubi-g'arbiy havo massalari ustunlik qiladi. Bunday oqimlar mavjudligini 5-7 ming metr balandlikdagi havo bosimi va havo oqnmlarivy ko'rsatuvchi aero'logik kartalardan yaxshi bilib olish mumkin.

1-jadval. Vohada o'rtacha radiatsiya miqdori (kkal $sm^2$)

| Stantsiya | Oylar | | | | | | | | | | | | Yil |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 | |
| Urganch | 96 | 133 | 180 | 235 | 318 | 373 | 394 | 376 | 334 | 273 | 174 | 112 | 2952 |

Manba: Xorazm viloyati gidrometeoro'logiya xizmati boshqarmasi

O'zbekistonga nam zapaslarini ana shu havo oqimlari olib keladi. Bazan ob-havo sharoiti o'zgarishi natijasida 5-7 ming megrr balandlikda havo oqimlari deyarli meridian yo'nalishda harakatlanadi. Bunday vaqtlarda O'zbekistonga goh shimoldan, goh janubdan tropik havo bosib keldi. Qanday havo kirib kelsa, u ob - havo sharoitini malum darajada o'zgartiradi. Yoz oylarida tuproq ustki qismi harorati 501 dan oshadi. Viloyat hududida yilning dsyarlik barcha fasllarida shimoli-sharqiy shamollar ustun. Yozda garmsel shamollari ham esib turadi. Bunday paytda issiq yoqimsiz shamol o'sadi, o'simlik barglari so'ladi, havo harorati keskin ko'tariladi, nisbiy namlik pasayadi.

Xorazm viloyati respublikada yog'in eng kam yog'adigan hududlardan biri sanaladi. Buyerda sug'ormasdan hech qanday dehqonchilik qilib bo'lmaydi.

o'rtacha yillik yog'in 80-110 mm ni tashkil qiladi. Bug'lanish esa yog'in miqdoridan 18-19 marta yuqori. Yog'inning 40% bahor fasliga, 20-25% kuzga. 30-35% qishga, atigi 10% yozga to'g'ri keladi. Yog'ingarchilikning fasllar bo'yicha bunday taqsimlanishi qishloq xo'jaligi ekinlari vegetatsiyasini tezlatish yoki pasaytirishga tasir tsilmaydi. Iyul, avgust, sentyabr, oylarida o'r-tacha oylik yog'in miqdori 2 mm ga to'g'ri keladi. Eng ko'p yog'in mart oyida (20-25 mm) yog'adi. Ko'p yillik kuzgi o'rtacha sovuq tushishiXorazm viloyatida eng kech 10 oktyabr 1974 y va eng erta 27 sentyabr 1973 yilda kuzatilgan. Bahorgi sovuq tushishi esa eng erta 1.03.1974 y. va eng kech 25,04,1965 yilda kuzatilgan. Viloyatda havoning namligi Oro'l va Kaspiy dengizlari hisobiga shakllanadi. Uning o'rtacha yillik namligi 53-60% ga teng.

Viloyatda yil davomida bir havo massasi ikkinchi havo massasi bilan almashinib turadi. Havo massalari almashinishining takrorlanishi shamolning kuchiga, yil fasliga, ob-havo sharoitiga, umuman hudud iqlimiga katta tasir qiladi.

Masalan, sovuq havo massalari tez-tez kelib tursa, havo sovuq keladi, issiq havo massalari kelsa, aksincha havoning isib ketishiga sabab bo'ladi. Viloyatda havo massalarining almashinishi bevosita mamlakatimiz havo massalari bilan bog'liq. Havo massalarining almashinish xususiyatlarini aniq tasavvur qilish uchun yilning bir-biridan keskin farq qiladigan yoz va kuz misolida ko'rib chiqaylik. Qishda Sibirda yuqori bosim oblasti (antitsiklon) vujudga keladi. O'zbekiston bu oblastdan janubi - g'arbda joylashgan. Shu tufayli ham respublikamizda atmosferaning pastki tsayayashlarnda ko'pincha kuchsiz shamol esadi. Havo ochiq bo'lsa, kechasiyer nur sochish yo'li ham soviydi. Kunduz kunlari quyosh uni yana isitadi, yog'inlar deyarli yog'maydi. Bunday sharoitda boshqa rayonlardan kelgan havo o'z xususiyatlarini o'zgartirib mahalliy kontinental Turon tropik havosiga aylanadi. Mazkur havoni transformatsiya havosi ham deyiladi. o'zgarish qishda 28% gacha takrorlanib turadi. Bunday vaqtda nafaqat viloyati, balki butun O'zbekiston hududini sovuq havo qoplab oladi. Vu sovuq havo massasini Eron, Afg'onistondapi iliq havodan ajratib turuvchi Kugb fronti tashkil topadi. U Respublikaning janubiy chega-rasida vujudga keladi. Front atrofida tsiklonlar hosil

bo’ladi va uning harakati kuchayadi. Ana shu issiq tropik havoni olib kelishi tufayli, havo harorati oldingisiga nisbatan 10-20°ga ko’tarilib bulutlar ko’payishiga sabab bo’ladi. Demak, qish oylarida viloyatda va respublikada havoning isib ketishi, Erondan tropik havo massasining kirib kelishi bilan bog’liq ekan. Yong’inlarning ham aksariyati ana shu havo massasi (tsiklonlar) o’tganda yog’adi. Qish kunlarining taxminan 25%ga yaqinini shunday kunlar tashkil tsiladi. Viloyat hududiga tsiklonlarning kirib kelishi bahorda ham sodir bo’ladi. Natijada bahorda ham yog’in ko’p yog’adi.

Viloyat hududiga qishda g’arbiy havo massalari ham kirib keladi. Qishda havo 11% gacha takrorlanadi.

Bu havo asosan Qora dengiz va Atlantika okean ustida shakllanganligi tufayli iliq va sernam bo’ladi. Ular yomg’ir va qor yog’ishiga sabab bo’ladi. Shimoldan va shimoli-g’arbdan ham sovuq havo massalarining kirib kelishi harora-ratni 10-20° ga pasayishiga olib keladi. Arktika havosi bostirib kelganda harorat 25-32° gacha pasayadi. (1930 yil dekabr, 1969 yil yanvar, 1993 yil noyabr, dekabr, 1994 yanvar) oylarida shunday bo’ldi.

Yoz faslida havo massalarining almashinishi mutlaqo boshqacha tarzda namoyon bo’ladi. Viloyat hududining qumlar bilan o’ralganligi, yozda havoning juda isib ketishi mahalliy kontinental havoning tarkib topishiga sabab bo’ladi. Tropik havo Eron cho’llari havosidan qolishmaydi. Iyuldagi o’rtacha harorat viloyatning Qoraqum bilan bo’lgan chegaralarida Q28-30° ga chiqadi (Eronda Q30-32°). Yozda frontlar bo’lmaganligidan yog’inlar juda kam bo’ladi. Havoning juda qizib ketganligidan Mamlakatimiz, umuman o’rta Osiyoda ustida bosim oblasti, (termik depressiya) vujudga keladi. Uning markazi Janubiy Tojikistonda joylashadi. Termik depressiya xuddi nasosdek shimoldan va g’arbdan havo massalarini so’rib oladi. Yozda g’arbiy (28%), shimoliy va shimoli-g’arbiy havo massalarining (34%) havo massalarining bostirib kirishi qishdagiga nisbatan ikki marta takrorlanadi.

Bu jarayon ob-havoni 3-10° pasaytirishi mumkin. Demak yozdagi atmosfera tsirkulyatsiyasining qishdagidan asosiy farqi shuki, yozda ob-havoga tasir etuvchi

janubiy omillar (tsiklonlar) yo'qoladi. Butun hududni issiq tropik havo qoplab oladi. Viloyat iqlimining tashkil topishida qishda atmosfera tsirkulyatsiyasi, yozda esa quyosh radiatsiyasi muhim ro'l o'ynaydi.

Viloyat iqlimi shakllanishida relefning ham ro'li katta. Xuddi respublikamizga o'xshab viloyat hududi ham g'arb va shimol tomondan tog'lar bilan to'silmaganligidan sovuq havo massalari g'arb va shimoldan bostirib kirib qishki xaroratni ancha pasaytirib yuboradi. Xorazm vohasi iqlimiy sharoitlari shakllanishida inson ham tasir ko'rsatadi. Aholining xo'jalik faoliyati natijasida katta maydonlarning relefi o'zgardi, minglab gektar yangiyerlar ochildi, kanallar shaharlar qishloqlar bunyod etildi. Natijada shuyerlarda havoning harorati, namlik darajasi shamolning kuchi ham birmuncha o'zgaradi. Suv bilan yaxshi tamishpngan, o'simlikka boy vohalarda yozda havoning harorati atrofdagi cho'llarga nisbatan 1,5-3° past, sutkalik amplituda kamroq, nisbiy namligi 10-15% oshiq, salqin bo'ladi, xullas o'ziga xob voha iqlimi tarkib topadi.

**III-bob. Xorazm vohasi qoqio’tdoshlar oilasiga mansub shifobahsh o’simliklari tarkibi va tarqalishi.**

3.1. Bir yillik shifobahsh o’t o’simliklar va bioekologik xususiyatlari.

**Ko’k bo’tako’z-** *Vasilek siniy — Centaursuan L.* Astradoshlar (murakkabguldosh- lar) — Asteraceae (Compositae) oilasiga mansub, bo’i 4—80 sm ga etadigan bir yillik o’t o’simlik. Poyasi tik o’sadi, yuqori qismi shoxlangan. Poyasining pastki qismidagi barglari birikkan, patsimon bo’lib o’simlik gullaganida qurib qoladi, yuqori qismidagi barglari chiziqsimon yoki ingichka nashtarsimon, tekis qirrali, bandsiz poyasida ketma-ket joylashgan. ko’k rangli gullari savatchaga to’plangan. Mevasi — qizgish rangli. Iyun —iyul oylarida gullaydi, mevasi avgustda etiladi. O’rta Osiyo va Uzoy sharqdagi boglarda, bugdoyzorlarda, ekinlar orasida va boshka erlarda usadi. Gulining damlamasi yurak va buyrak faolinti buzili shinatijasida ta na ga kelgan shishni (nstisko kasalligini) davolashda siydik xaydovchi vosita sifatida qo’llaniladi. Gullari siydik xaydovchi choy — yigmalar tarkibiga kiradi. Ko’k bo’takuz gulining damlamasi xalq tabobatida shamollash, yo’tal, ko’kyo’tal, qorin va qovuq ogriklari, ich ketishi, asab kasalliklarida qo’llaniladi. Damlamasi yana siydik xaydovchi, terlatuvchi, bachadondan qon to’xtatuvchi vosita sifatida ishlatiladi. Ba’zan ko’z kasalliklarida xam qo’llaniladi.

Bo’takuz gulidan damlama tayyorlash uchun og’zi yopiladigan idishga bir stakan qaynab turgan suv quyib, ustiga tilsimon gullaridan bir choy qoshiqda solinadi va bir soat damlab qo’yiladi, Keyin dokada suziladi va siydik xaydash uchun kuniga 3 maxal ovqatdan 15—20 mi□no’toldin chorak stakandan ichiladi. Kuz qizarib yalliglanganda uni shu damlama bilan yuvish xam mumkin. Dorixonadan ko’k bo’takuz gulidan 100 g olib undan 10 g ni 200 g qaynab turgan suvga solinadi va 20—30 mino’t damlab qo’iladi. Sung dokadan o’tkazib, siydik xaydovchi dorio’rnida chorak stakandan 3 maxal ovqatdan 20—30 mi□no’toldin ichiladi. **Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi.** Ko’k bo’takuz tarkibi□datsinarin, tsentaurin va tsikornin glikozidlari, antotsianlar, kumarinlar, shilliq, oshlovchi va boshqa moddalar bor.

**KUNGABOQAR (PODSOLNEChNIK OBO'KNOVENNO'Y).** Kungaboqar murakkab guldoshlar oilasiga kiradi. O'zbekistonning hamma tumanlarida uzoq vaqtlardan beri suvli yerlarda ekib o'stiriladi. Bo'yi 2-4 metrgacha o'sadi. Bir yillik o'simlik, barglari oddiy tishsimon, qirrali. Poyada ketma-ket joylashgan. Gullari va poya va shoxchalari uchidagi yirik savatchaga to'plangan savatcha chetidagi gullari sariq, o'rtadagi guli naychasimon, mevasi pista. Iyun oyida gullaydi, avgustda pishadi.

Kungaboqar gullaganda bargi, gullari yig'ib olinadi, soya yerda quritiladi. Mevasi avgust oyida pishganda savatcha qirqib olinib, uqalab doni olinib, yog' olish uchun zavodlarga yuboriladi.

O'simlikning bargi va gullarida solant kislota, betain, xolin flavonoidlar, karotin va boshqa karotinoidlar, urug'ida moy, xlorogen, limon kislotalar, karotinoidlar, fitin, oqsil, oshlovchi va boshqa moddalar bor.

Kungaboqarning tilsimon gullaridan tayyorlangan qaynatma xalq tabobatida bezgak, isitma, yurak, bod, ich ketish, sariq bo'lgan bemorlarga ishlatiladi. Gulidan tayyorlangan damlama ishtaha ochadi, siydik haydaydi. Gulidan damlama tayyorlash uchun og'zi yopiladigan idishga 200 gramm suv quyib, ustiga bir osh qoshiq maydalangan gulidan solinadi va 15 daqiqa past olovda sekin qaynatiladi. Keyin dokada suzib, yuqorida ko'rsatilgan bemorlarga 3-4 mahal ovqatdan ilgari bir osh qoshiqdan ichish tavsiya etiladi.

Kungaboqarning moyidan oziq-ovqatda ishlatiladi va yumshatuvchi dori sifatida, surtma dori, malhamlar va meditsina sovuni tayyorlanadi.

Kungaboqarning donini qovurib, ozgina tuz sepib mag'izini chaqib iste'mol qilinadi.

**Ishlatiladigan organlar:** o'simlikning yer ustki (qismi o'ti).

Bu o'simlikning yer ustki qismlarida vitamin C, B1, va B2, karotin, qand moddalari organic kislotalar, oqsillar va boshqa moddalar topilgan.

**Ta'siri va qo'llanilishi:** xalq tabobatida barglaridan yaxshigina yel haydaydigan , vosita tariqasida foydalaniladi, ularni kamqonlik va raxit kasalliklari davosiga buyuriladi. Ismaloq barglari, gipoxrom anemiya, giparatsid gastrit,

enterokolit bilan og'rigan kasallarga ancha foyda beradi.

Hakim Davoiy al- G'iloniy o'zining "Favoyidul inson'' asarida ismaloq o'simligini quyidagicha tasvirlaydi:

Ismaloq zamona ahli fikricha,
Beli og'riganda kim issiq mijoz,
Yeyilgan qorinda damlamas uncha,
Siydigi kuydirsa qilar u iloj,
Ho'l sovuq , ko'p yaxshi oziqligi bor,
Tozqlash, poklashu, yuvishligi bor,
Me'dadan safrona qilar toru mor,
Bir ozgina yana yumsharishlik yor,
Ko'kragu o'pkaga yaxshi naf etar,
Qurish, issiq bo'lsa o'pka tamoqda,
Eski yo'tal bo'lsa, quvilib ketar,
Yog' ila yeyilsa ketar shu chog'da.

Ichak yaxshi turishmaydigan va qorin dam bo'lib turadigan mahallarda 10 gr miqdorida ismaloq barglarini bir stakan suvda qaynatib ichib turiladigan bo'lsa, ichaklar ishi ancha ravonlashib, qorin damligi kamayadi.

Ismaloqdan bahor kezlari yangi ko'kat tariqasida ham keng foydalaniladi va undan har xil taomlar tayyorlanadi, lekin ismaloqdan tayyorlangan taomlar o't haroratida bir- ikki kun turib qolsa, ulardan nitrat tuzlari paydo bo'ladi bu tuzlar qonga so'rilib o'tib, qizil qon tanachalariga zaharli ta'sir ko'rsatadi va to'qimalarning oziqlanishini ishdan chiqaradi.Zamonaviy tabobbatda ismaloq barglari gidro'liz qilinganda sekretin degan modda hosil bo'lishi aniqlangan, bu modda me'da bezlari bilan me'da osti bezlarining faoliyatini kuchaytirib, ovqat hazm bo'lishini yengillashtiradi.

## 3.2. Ikki yillik shifobahsh o't o'simliklar va bioekologik xususiyatlari.

**Oddiy oqkarrak** Astradoshlar (murakkabguldoshlar) — Asteraceae (Compositae) oilasiga mansub, bo'yi 60—200 sm bo'ladigai tikanli ikki

yillik o’t  o’simlik. Poyasi tik o’sadi, qanotli, sertuk, tikanli, shoxlangan. Barglari yirik, u xam sertuk, keng yoki tor lantsetsimoi, qirralari o’yilgan bo’lib, qisqa bandi (ildizoldi tup barglari) yoki bandsiz poya va shoxlarida ketma-ket o’rnashgan. To’q qizil gullari yirik, tuxumsimon-sharsimon savatchaga joylashgan. Mevasi — qisqa uchmali lista. Iyun — avgust oylarida gullaydi, mevasi iyul — sentabrda etiladi. Xalk tabobatida oqkarrakning er usti qismi va mevasi ishlatiladi. O’simlik gullagan (yoki gullashidan oldin) vaqtida poyasining yuqori qismi qirqib olinadi va soya erda quritiladi. Mevasi esa pishganda savatchasi bilan qirqib olinadi va ochiq xavoda quritiladi. So’ngra savatchasi bilan birga qullaniladi yoki savatchani yanchib, mevasi ajratib olinadi. Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Oq karrakning er ustki qismi tarkibida alkaloidlar, arktsiopikrin, vitaminlaar, qandlar, organik kislotalar, achchiq, oshlovchi va boshqa moddalar, mevasida —0,1 % gacha alkaloidlar, 15—35 % yog’ bor. Er ustki qismi damlamasi yoki qaynatmasi xalq tabobatida xavFli o’cmalarni (jumladan,  bachadon raki qoqshol va yiringli yaralarni davolashda hamda  qon oqishini to’xtatuvchi, siydik xaydovchi va mikroblarni uldiruvchi dori vositasi sifatida qo’llaniladi. Oq karrak ustki qismini dorivor pereparatlari yurak ishini yaxshilovchi, siydik haydovchi, qon oqishini  to’xtatuvchi va bakteriyatsid ta’sirga ega ekanligi tajribada aniqlanib, ilmiy tibbiyotda ishlatishga tavsiya etilgan. SHuningdek, rak kasalligini operatsiya qilgandan so’ng uni profilaktika qilishda foydalanilgan.

**Silybum marianum (L.) Gaertn.** (murakkabguldoshlar) — Asteraceae (Compositae) oilasiga mansub, buyi 30—150 sm ga etadigan bir yoki ikki yillik o’t o’simlik. Poyalari tik o’sadi, asos qismidan shoxlangan. Barglari yupqa, dog’li, ildiz oldi barglari bandli, tuxumsimon, tikanli qirrali bo’laklarga patsimon ajralgan, poyasining yuqori qismidagilari — cho’ziq nashtarsimon, tekis bo’lmagan tishsimon tikanli bo’lib, poyasi bilan shoxlarida bandsiz ketma-ket o’rnashgan. To’q kizil rangli gullari sharsimon savatchalarga to’plangan. Mevasi — teskari tuxumsimon pista. Aprel — may oylarida gullaydi, may — iyunda mevasi etiladi.

Mevasi. Ular etilgan vaqtda o’simlik qurib olinadi, xirmonda kuritiladi, yanchiladi va shamolda sovurib, tozalab olinadi. Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Mevasi tarkibida S 2,7 % gacha flavonlignanlar (silibin, degidrosilibin, silixristin, degidrosilixristin va boshqalar), taksifolin flavonoidi, saponinlar, alkaloidlar, fumar va boshqa organik kislotalar, vitaminlar efir moyi 32 % gacha, shilliq, achchiq va boshqa moddalar bor. Meva flavonondlari summasining pereparatlari — (silibinin va silibor gepatit, tsirroz, sariq va jigarrang boshqa surunkali kasalliklarni davolashda qo’llaniladi. alar ham bor.

**Ta’siri va qo’llanilishi:** xalq tabobatida yovvoyi va ekiladigan sabzining ildizlari va urug’lari dori tariqasida ishlatiladi. O’kir surunkali gepatitlar, sariq kasalligi, shabko’rlik mahalida zarda qaynagan, qabziyat bo’lgan paytlar, bevosilda, gastritlar, me’da yara kasalligida qirilgan sabzibyuriladi. Badan tersi yorilgaganida va husinbuzar toshganida sabzi suvini tuxum sarig’i yoki as alga aralashtirib (1:1 nisbatda) suriladi.

Buyurak tosh kasalligi , qabziyat mahallarida va qorin dam bo’lib turganida sabzi urug’idan foydalaniladi. Sabzi barglarining suvi gush, diatez va neyrodermitga, ildizmevasining suvi esa xavfli o’smalarda davo qilish uchun ishlatiladi. Yovvoyi sabzi urug’larini O’rta Osiyo xalq tabobatida siydik va yel haydaydigan vosita tariqasida isteriyada, badanga shish kelgan mahallarda va siydak- tosh kasalligida, Xitoy tabobatida esa surunkali ichburug’da ishlatiladi.

Ibn Sino sabzi urug’I va barglarini yaralarni tezroq bitiradigan va siydik haydaydigan dori sifatida ishlatgan, ildiz mevalarini esa plevrit, surunkali yo’tal , ichak og’riqlari va va badanga shish kelganida byurgan.Sabzi shilimshiq safro’larni syultirib, ichki organlarning bitib qolgan joylarini ochadi va me’dani baquvvat qiladi.

Hakim Davoiy al- G’iloniy o’zining “Favoyidul inson” aasarida sabzini quyidagicha tasvirlagan:

Mijozi ho’l ,issiq, kitoblarga boq,
Suv ila tanasi boxga kuch biroq,
Zanjabil, go’sht ila no’xat, piyoz,

Sabziga qo'shilsa, erlik uchun soz,

Urug'I kuch ila hayizu peshob,

Kattayu kichikdan haydaydi shitob.

Zamonaviy tabobatda sabzi ildizmevalaridan gipo va avitaminozlarda foydalaniladi, ular mayin surgi tarzida ta'sir ko'rsatib, uglevodlar almashinuvini joyiga keltiradi. Ekma sabzidan oligan daukarin degan preparat xuddi papaverin va keliinga o'xshab , muskullarning tortishib, qisqarib turishiga yordam berdi, yurak-qon tomirlarini kengaytiradi.

Jigar, buyurak kasalliklari, bavosita qirilgan sabzi byuriladi, sabzi suvidan yesa yara, jarohatlar sovuq olgan joylar, angina vastomatitlarda davo qilishda foydalaniladi. Yovvoyi sabzi urug'dan olinadigan efir moyi har xil ekstraktlar tayyorlash uchun ishlatiladi.

**Mingdevona, shayton kosa (Belena chernaya).** Badbo'y hidi bo'ladigan ikki yillik o'tsimon begona o'simlik. Birinchi yili faqat ildiziga yaqin joyga burglar chiqaradi. Ikkinchi yili poya beradi, barglari navbatma-navbat joylashgan bo'lib,poyasini o'rab turadi. Yer ustki qismining hammasi tip bilan qoplangan. Gullari yirik gultojisi besh yaproqli, gungurt sariq rangda bo'lib, pastki qismida binafsha rang suyuqligi bor. Mevasi ko'p urug'li chanoq. Ekinzorlar, dalalar, tashlandiq joylar, ahlatxonalarda kichik-kichik to'da bo'lib o'sadi, zich changalzor hosil qilmaydi.

Aprel-iyulda gullaydi urug'lari may-avgust oylarida yetiladi.

Shimol o'lkalarini aytmaganda Yevro'pa bilan Osiyo qit'alarining hamma joylarida uchraydi. G'arbiy Yevro'pa, Pokisto, Xindiston, Yapo'niya, sobiq ittifoqda (Ukraina, Qrasno'dav o'lkasida) dori uchun ekib o'stiriladi. Qashqadaryo viloyatining ariq bo'ylarida, yo'l yoqalarida, ekin ekilmay qolgan yerlarda, o'tloqlarda, begona o't sifatida ekinzorlarda va boshqa yerlarda o'sadi.

**Ishlatiladigan organlari:** barglari, urug'lari.

Barglari o'simlik qig'oya gullaydigan davrda-avgust va sentyabr oylarida terib olinadi. Bu o'simlikning hamma qismlari juda zaharli. Yig'ib olingan xom ashyo og'izni yaxshi berkitiladigan shisha yoki sopol idishlarda saqlanadi.

Barglarida juda zaharli olqoloidlar giostsiamin, atropin, skopalamin bor. Bular barglarida 0,1% gacha, poyalarida 0,02% atrofida, urug'larida 0,06-0,1% va ildizlarida0,15-0,18% atrofida bo'ladi. Bargalida alkoloidlardan tashqari bir qancha gilikozidlar, rutin va boshqa flavonoidlar ham bor, urug'laridan 34% ga qadar qurib qolmaydigan moy olingan.

**Ta'siri va qo'llanilishi:** O'rta Osiyo xalq tabobatida mingdevona og'riq qoldirish uchun ishlatiladi barglaridan olinadigan shirasi o'smalar va quloq og'rig'iga davo sifatida buyuruladi. Urug'laridan aroqda tayyorlangan ekstrakti talvasa tutganda ishlatiladi. Barglaridan tayyorlanadigan malhamni yaralarga yiringdan tozalash uchun qo'yiladi.

Ibn Sino barglaridan siqib olingan suvuni ko'z va tish kasalliklarida, bachadon og'riqlarida og'riq qoldiradigan dori o'rnida va bachadondan qon ketayotgan mahallarda qon to'xtatadigan vosita tariqasida ishlatishni tavsiya etgan. Mingdevonani u yo'tal o'smalar, yallig'alanish kasalliklari va boshqa kasalliklarda tinchlantiruvchi hamda og'riq qoldiruvchi vosita tariqasida ishlatilgan.

Zamonaviy tabobatda mingdevona preperatlari (quruq ekstrakti, mingdevona moyi) spazmalarini bartaraf etuvchi va og'riq qoldiruvchi vosita tariqasida, ming devona moyi esa revmatik va nevralgiya holatlarid og'riq qoldiruvchi dori tariqasida badanga iylash uchun ishlatiladi. Ming devona barglari astmaga qarshi vositalar astmatol va astmatin tarkibiga kiradi.

Ming devona preparatlari ichak,o't va siydik yo'llari silliq musqullarining spazma, ya'ni qisqarib tortib turushni bartaraf etadi, bronxlarning silliq muskullariga kamroq ta'sir o'tkazadi. Ular har xil bezlar (so'lak bezlar me'da va ter bezlari) ning secretor funksiyasini susaytirib qo'yadi, shu sababdan bu preparat ishlatilganda odam og'zi quriberadi.

### 3.3. Ko'p yillik shifobahsh o't o'simliklar va bioekologik xususiyatlari.

**Dastarbosh** -Asteraceae (Cornpositae) oilasiga mansub, U 50—150 sm bo'ladigan ko'p yillik o't o'simlik Poyasi tik o'sadi, sershox. Barglari patsimon ajralgan ustki tomoni to'q yashil, orqa tomoni kulrang-yashil bo'lib bandi

yordamida (poyasining pastki qismidagilari) yo bandsiz (poyasining o'rta va yuqori qismidagilari) poya bilan shoxlarida ketma-ket o'rnashgan. Bargi bo'lakchali, cho'ziq nishtarsimon, patsimon qirqilgan yoki tishsim qirrali. Savatchaga to'plangan sariq rangli gullari qalqonsimon to'pgulni tashkil etadi. Iyul — sentabr oylarida gullaydi, avgust —sentabr oylarida mevasi etiladi. Geografik tarqalishi. Uzoq shimol va cho'l zonalarida tashqari xamma erda — yul yoqalarida joylarga yaqin erlarda, o'tloqlarda, o'rmon chetlarida, suv bo'ylarida o'sadi. Guli (gultuplami). Gullari o'simlik gullagan vaqtida gultunlami qisqa bandli *bilan* (2 sm dan uzun bo'lmasligi kerak) qirqib olinadi va salqin erda yoki harorati 40° bo'lgan quritgichlarda quritiladi.

1. **Kimyoviy** tarkibi va ishlatilishi. Gullari tarkibida 1,5—2 % efir moyi, flavonoidlar (kverietin, lyuteolin *apigenii,* diosmetin), alkaloidlar, achchiq tanatsetin, oshlovchi va boshqa moddalar bor. Gullarining efir moyi 47 % gacha spirtidan va boshqa birikmalaridan tashkil topgan. Gullarining damlamasi va poroshog'i gijjalarni (askarida va ostritsalarni) tushirishda va jigar kasalliklarida o't haydovchi dori vositasi sifatida xamda ba'zi ichak kasalliklarini davolash uchun qo'llaniladi. Dastarbosh guli o't haydovchi (jigar, o't pufagi va o't yullari kasalliklarida ishlatiladigan) joylar – yig'malar hamda yig'masi tarkibiga kiradi- Gullaridan olingan tanatsexol preparati jigar o't pufagi kasalliklarida o't xaydovchi dori sifatida ishlatiladi. Dastarbosh gullari qadimdan xalq tabobatida turli kasalliklarni daolash uchun ishlatib kelingan. Gullaridan tayyorlangan damlama gijjalarni tushirish, isitma- ba'zi me'da-ichak va boshqa kasalliklarni davolash uchun o't xaydovchi dori vositasi sifatida xamda yaralarni davolashda qo'llaniladi.

**Oqqunduz (kunduz)** turlari (murakkabguldoshlar) — Asleraceae oilasiga mansub, buyi 30—80 sm keladigan ko'p yillik o't o'simlik. Poyasi bitta yoki bir nechta, yuqori qismi shoxlangan. Barglari chuqur patsimon qirqilgan, tikanli, arrasimon qirrali, pastki tomoni sertuk, kumushsimon kulrang, ustki tomoni tuksiz bo'lib, poyasida ketma-ket o'rnashgan. Ildizoldi va poyasining pastki qismidagi barglari bandli, yuqori qismidagilari bandsiz. Ko'k yoki oq, rangli, besh bo'lakli,

naychasimon gullari sharsimon boshchaga — *savatchaga joylashgan.* Mevasi — cho'ziq. Iyun — avgust oylarida gullaydi, mevasi avgust — sentabrda etiladi. Geografik tarqalishi. G'arbiy Sibir, Kavkaz, Ukraina, Kozog'iston va O'rta Osiyo cho'llarida tosh va shag'alli qiyaliklarda o'sadi. Tibbiyotda kunduzning ikki turidan foydalaniladi: Oddiy kunduz — Mordovnik овыknovennыу — Echinops ritro L. va YUmaloq boshli kunduz — Mordovnik sharogolo- viy — Echinops sphaerocephalus L. Qo'llaniladigai qismi. Tibbiyotda oqqunduz turlarining mevasi ishlatiladi. O'simlik k mevasi etilganda (avgust — sentabr oylarida) yig'ib olinadi, shamol uchirib ketmaydigan joyda quritiladi va savatchalari yanchilib shamolda sovuriladi, mevalari ajratib olinadi. Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Kunduz turlarining mevasi tarkibida 1,5—2% gacha exinopsin alkaloidi, 26—28 % yog' bor. Exinopsin nitrat (alkaloidning nitrat tuzi) shol bo'lgan xollarda, radikulit, gipotoniya (qon bosimi pasayishi) va boshqa kasalliklarni davolashda strixnin nitrat bilan bir qatorda qo'llaniladi.

**OTQULOQ (Shavel konskiy).** Bo'yi 150sm gacha boradigan ko'p yillik o'tsimon o'simlik. Ildiz poyasi kalta bo'lib, kamroq tarmoqlanadigan yo'g'on ildiz chiqaradi. Poyasi egatchali bo'lib, to'g'ri o'sadi, uchki qismidan shoxalaydi. Barglari navbatma-navbat joylashgan bo'lib, pastkilari uchburchak-tuxumsimon, ustkilari tuxumsimon nashtarsimon shaklda, bandli. Gullari mayda, ko'rimsiz, qavg'asimon to'pgullar hosil qiladi mevasi tuxumsimon shaklda bo'ladigan och jigarrang tusli. Uch qirrali yong'oqcha.

May-iyunda gullaydi, mevalari iyun-iyulda yetiladi.

Viloyatning barcha tumanlarida begona o't tariqasida ekinlar ichida, shuningdek soy-ariqlar bo'yida, yo'l chetlarida o'sadi. Bir qancha turlari bor, hammalari ham shifobaxsh xossalariga ega. Bu o'simlikning hamma qismlari o'ziga xos nordon mazali, yer ustki qismlarini ko'kat o'rnida ishlatish ham mumkin.

**Ishlatiladigan organlari:** ildizlari, urug'lari.

Bu o'simlikning ildiz poya va ildizlarida antraxinon unumlari, oshlovchi moddalar, nefadin degan flavonoid, katronlar, efir moyi, vitamin K, organic temir

birikmalari bor. Urug'larida ham antroxinon va oshlovchi moddalar, barglarida flavonoidlar, shuningdek vitamin C va qaratin topilgan.

**Ta'siri va qo'llanilishi:** xalq tobabatida bu o'simlikning gullari, urug'lari, barglari, ildizlari va yangi olingan suvidan foydalaniladi. Urug'larini yanchib, siydik haydaydigan, ich surushini qoldiradigan vosita tariqasida ovqatdan oldin 0,3-0,5g dan bir marta ichish buyuriladi.

Barglari va gullaridan tayyorlangan damlamalar odamlarning ishtahasini ochib, jigar, yurakka quvvat beradi, qon ketishini to'xtatadi, sariq kasalligini, isitma, gepatitlarda foyda qiladi. Otquloq, o'tidan tayyorlangan damlama,qaynatma va ekstraklarini badan terisidagi yara-chaqalarga davo qilish uchun ham ishlatiladi.

Ibn Sino fiktiga qaraganda, otquloq oti va urug'lari ich ketarga davo bo'ladi. Urug'larini suv yoki musallas bilan ichilsa , ichakdagi yaralar hamda ich surishiga davo qlishda naf beradi, sharibga solib damlangan urug'lari esa, siydik toshlarini maydalaydi.

Zamonaviy tabobatda otquloq o'tidan tayorlangan galen preparatlardan kolitlar, enterokolitlar, gemokolitlar, bolalarda bo'ladigan ich ketarga davo qilishda foydalaniladi. Uning ichni qotiradigan yoki bo;shashtiradigan ta'siri ancha miqdorda ichilishiga bog'liq bo'lib, kamroq miqdori ichni qotiradi, ko'proq miqdori esa, aksincha, surgu bo'lib ta'sir ko'rsatadi (uning bunday ta'siri preparat ichilganidan 8-12 soat keyin yuzaga chiqadi). Bu o'simlik ildizidan tayyorlangan ekstraktni gipartaniya kasalligining I va II bosqichida ham buyuriladi. Damlamasini enterokolidlar, bavosil, gipatit, xolististitlar vaqtida, shuningdek bachodondan qon ketayotganda hamda siydik haydovchi vosita tariqasida ishlatiladi, ildizlari va barglaridan tayyorlangan qaynatmani teri kasallikalri, yara-chakalarni davosiga buyuriladi.

Bu o'simlikdan tayyorlangan galen preparatlarning qon bosimini tushuradigan, qon oshishini to'xtatadigan ta'siri borligi hayvonlar ustidagi tajribalarida ham aniqlangan.

**ZUBTURUM (PODOROJNIK).** Bargizub o'lkamizda o'sadigan shifobahsh o'tlardan sanaladi. Bu o'simlikdan qadim zamonlardan Yunoniston,

Rim tabiblari va O'rta Osiyo tabiblaridan Abu Ali ibn Sino bargizub bilan yara, jarohatlar, xavfli o'sma, shishlarni, jigar, buyrak, ko'z kasalliklarini davolaganlar.

Bargizubning qon to'xtatishi ma'lum. Barg shirasini klizma sifatida qo'llaganlar. Ilmiy tabobatda bargizub bargidan o'pka, me'da raki bemorlarini davolashgan. Shamollasa, ich ketganda, yo'tal qoldirib isitmani tushiradi, gastrit, yo'gon ichak yallig'lanishida tavsiya etilgan. Bargizub ko'p yillik o'simlik bo'lib, xalqimiz orasida zubturum, mixcho'p deb ham ataladi. Bargizub ariq bo'ylarida, nam, zax joylarda, bog'larda, ekin-zorlarda o'sadi. Bargizub gullagan paytda yig'iladi. Bargizub bargida glyukozid, aukubin, enzimlardak envertin: emulsin, karotin, oshlovchi moddalar, alkaloid, shilliq, qotron, organik kislotalar, vitamin S, limon kislota borligi aniqlangan.

Bargizub bargidan damlama tayyorlash uchun yarim choynak qaynoq suvga bir osh qoshiq bargizub talqonidan solib ikki soat damlab qo'yiladi. So'ngra kuniga 4 mahal ovqatdan oldin ichiladi. 100 grammdan 10 kun bargizub bargidan sharbat olib, unga teng asal qo'shib 20 minut past olovda qaynatiladi. Sharbatdan kuniga 3 mahal 1 osh qoshiqdan ichiladi. Bargizub nafas yo'li shamollagan bemorlarda balg'am ko'chadi.

Ilmiy manbalarda bargizub bargidan va movrakdan 1 osh qoshiqdan olib, 200 gramm qaynoq suvda tayyorlangan damlama me'da yarasi bor bemorlarga buyuriladi, bu ijobiy natija beradi. 10 kun 50 grammdan kuniga 3 mahal ovqatdan oldin ichish kerak. Bargizub urug'idan va o`zidan tayyorlangan damlama qand kasali bilan og'rigan bemorlarga ham buyuriladi. Hozir maxsus "Giyohnoma" va dorixonalarda sanoat miqyosida bargizub preparati "Plantoglyutsid" va bargizub sharbati — "Sok podorojnik" dorixonalarga chiqarilgan. Asosan gipotsid gastriti, oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak jarohati bor bemorlarga buyuriladi.

1. Ichdan qon kelishni to`xtatish uchun bargizubning 300 gramm bargini 3 litr suvda past olovda 10 minut qaynatib 10 kun 3 mahal 50 grammdan ichiladi.

2. Bargizub talqonini 12 kun 3 mahal eski va yangi yaralarga sepib bog'lansa tuzaladi.

3. Qaynatmasiga bintni shimdirib issiq shishlar va olovda kuygan

joylarga 8 kun 3 mahal bog'lansa davo bo`lib tuzaladi.

4. Yomon yaralarga, chuqur jarohatlarga bir kunda 3 mahaldan 15 kun talqonini sepib bog'lansa, tuzaladi.

5. Quloq og'rig'iga suvi tomizilsa, og'riq qolib qulog'i tuzaladi. 7 kun bir kunda 3-4 mahal tomizish kerak.

6. Qaynatmasini 10 kun 3 mahal 50 grammdan ichsa, qon tupurganga foyda qiladi. Qonni to`xtatadi.

## 3.4. Xorazm viloyatida shifobahsh o'simliklardan foydalanish istiqbollari

Shifobahsh o`simliklardan viloyatda sanoat usulida farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqarish dolzar ahamiyatga ega. Xususan viloyatda qator shifobahsh o`simliklarni plantatsion usulda etishtirish va dori-darmon olish imkoniyatlari mavjud (2-jadval).

2-jadval.

**Xorazm viloyatida plantptsionyetishtirish imkoni mavjud o'simliklar**

| **№** | **Lotin tilida nomlanishi** | **Rus tilida nomlanishi** | **o'zbek tilida nomlanishi** |
|---|---|---|---|
| **1** | Arctium | Lopux voylochno'y | Qariqiz |
| **2** | Artemisia absinthium | Polo'n gorkaya | Ermon |
| **3** | Artemisia vulgaris | Polo'n obo'knovennaya | Ermon |
| **4** | Bidenstripartita | Chereda tryoxrazdelnaya | Ittikanak |
| **5** | Calendula officinalis | Kalendula lekarstvennaya | Tirnoqgul |
| **6** | Capparisherbacea | Kapertso' kolyuchie | Kovul |
| **7** | Capsella bursa-pastoris | Pastushya sumka obo'knovennaya | Jag'-jag' |
| **8** | Cichorium intybus | TSikoriy obo'knovenno'y | Sachratqi |
| **9** | Cistanche salsa | TSistanxe | Iloncho'p |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | solonchakovaya | |
| **10** | Convolvulus subhirsutus | Vyunok sherstisto'y | Mingbosh |
| **11** | Equisetum arvense | Xvoh polevoy | Kirkbugim |
| **12** | Ferula foetida | Ferula vonyuchaya | Sassikkavrak |
| **13** | Fumariavaillantii | Do'myanka vayana | Shotara |
| **14** | Glycyrrhiza glabra | Solodka golaya | Shirinmiya |
| **15** | Hypericumperforatum | Zveroboy prodo'ryavlenno'y | Dalachoy |
| **16** | Juglansregia | Orex gretskiy | Yong'oq |
| **17** | Matricariarecutita | Romashka aptechnaya | Moychechak |
| **18** | Melilotusofficinalis | Donnik lekarstvenno'y | Qashqarbeda |
| **19** | Mentha longifolia | Myata aziatskaya | Yalpiz |
| **20** | Menthapiperita | Myata perechnaya | Kalampiryalpiz |
| **12** | Nepetacataria | Kotovnik koshachiy | Zufo |
| **22** | Peganumharmala | Garmala obo'knovennaya | Isirik |
| **23** | Plantago major | Podorojnik bolshoy | Zupturum |
| **24** | Polygonumaviculare | Gorets ptichiy | Kiziltasma |
| **25** | Polygonumhydropiper | Gorets perechno'y | Suvkalampir |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **26** | Psoraleadrupacea | Psoraleya kostyankovaya | Okkuray |
| **27** | Rhamnuscathartica | Jostyor slabitelno'y | Togjumrut |
| **28** | Rosa canina | Shipovnik sobachiy | Itburun |
| **29** | Sophora japonica | Sofora yaponskaya | Tuxumak |
| **30** | Taraxacumofficinale | Oduvanchik obo'knovenno'y | Momakaymok |
| **31** | Urtica dioica | Krapiva dvudomnaya | Chayanut |

**Manba: Viloyat iqtisodiyot boshqarmasi ma'lumotlari**

Quyida ularning kimyoviy tarkibi va dori – darmon tayyorlanishini ayrim jihatlarini ko'rib o`tamiz.

**SHIFOBAHSH MOYChEChAK.** Qirqmabarg (shifobahsh ) moychechak (gazako't) — **Chamomilla Recutita (L.) Rascheri (Matricaria Recutita L.)**; xushbo'y (yashil) moychechak (gazako't) — **Chamomillasuaveolens (Pursh.) Rydb.** (**Matricaria suaveolens Buchen., Matricaria discoidea D□C.**); astradoshlar — **Asteraceae** (murakkabguldoshlar — **Compositae**) oilasiga kiradi.

**Mahsulotning tashqi ko'rinishi.** Tayyor mahsulot savatchaga to'plangan gullardan iborat. Shifobahsh moychechak savatchasining diametri 4—8 mm, yarim sharsimon bo'lib, o'rama barglari cherepitsaga o'xshab joylashgan. Savatcha chetidagi oq tilsimon gullari 12—18 ta bo'ladi. o'rtadagi gullari sariq, ikki jinsli, naychasimon, gulkosachasi bo'lmaydi, gultojisi besh tishli, otaligi 5 ta, onalik tuguni bir xonali, pastga joylashgan.

Yashil moychechakning savatchasi maydaroq bo'lib, yashil naychasimon gullardan tashkil topgan. Gulkosachasi yupqa parda shaklida, gultojisi to'rt tishli.

Savatchaning gul o'rni konussimon, tuksiz va ichi bo'sh. Ana shu belgilari

bilan shifobahsh (oddiy) va xushbo'y (yashil) moychechak savatchasi boshqa o'simlik aralashmalaridan (moychechak o'simligi o'sadiganyerda uchraydigan **Matricaria inodora; Leucanthemum vulgare Lam.; Anthems** turlaridan) farq qiladi.

Har ikkala moychechak mahsulotining xushbo'y hidi va achchiqroq o'tkir mazasi bor.

XI DF ga ko'ra mahsulot namligi 14%, umumiy kuli 12%, 10% li xlorid kislotada erimaydigan kuli 4%, teshigining diametri 1 mm li elakdan o'tadigan savatchaning mayda qismlari 30%, poya, barg aralashmalari va gul bandining uzundigi 3 sm dan oshiq bo'lgan (5 sm dan oshib ketmagan), savatchalar odatda 9% (yashil moychechak uchun 2%), qoraygan yoki qo'ng'ir savatchalar 5% (yashil moychechak uchun 8%), organik aralashmalar 3% va mineral aralashmalar 0,5% dan oshmasligi kerak.

**Kimyoviy tarkibi.** Savatchaga to'plangan gullar tarkibida 0,22—0,8%) efir moyi, apiin, kvertsimeritrin, kvertsetin, lyuteolin va boshqa (35 tacha birikmalar) flavonoidlar, gvayyanolid guruh laktonlaridan matrikarin va matritsin, geterotsiklik halqali poliin laktonlar, proxamazulen, qumarinlar (umbelli-feron, gerniarin), dioksiqumarin, karotin, vitamin S, shilliq, achchiq va boshqa moddalar bo'ladi.

XI DF ga ko'ra, oddiy moychechak guli tarkibida 0,3%, yashil moychechakda 0,2% efir moyi bo'lishi kerak.

Efir moyi ko'k suyuqlik bo'lib, tarkibida 1,64—8,99% xamazulen, 20% gacha seskviterpen spirtlari, kadinen, tritsiklik spirt, bisabolen va uning oksidlari, kapril, nonil, izovalerian kislotalar hamda boshqa terpen va seskviterpenlar bor. Efir moyi tarkibidagi seskviterpenlarning umumiy miqdori 50% gacha bo'ladi. Xamazulen efir moyining asosiy tasir etuvchi qismi hisoblanadi.

**Ishlatilishi.** Moychechak ichaklarning yopishib qolishi (ichaklar spazmi) ga, mikroblarga, allergiyaga va yallig'lanishga qarshi hamda yaralarni davolovchi tasirga ega. Shuning uchun uning shifobahsh preparatlari meda-ichak (ichak yopishib qolganda va ich ketganda) va ginekologik kasalliklarni davolashda hamda ter vayel haydovchi dori sifatida ishlatiladi. Bulardan tashqari, moychechak guli

yumshatuvchi, antiseptik va yallig'lanishga qarshi (og'iz, tomoqni chayqashda, shifobaxsh vanna hamda klizma qilishda) vosita sifatida qo'llaniladi.

Moychechak guli tarkibidagi kimyoviy birikmalar kompleksi (xamazulen, matritsin, apigenin, gerniarin va boshqalar) tasir etuvchi qism hisoblanadi. Xamazulen tinchlantiruvchi xossaga hamda ichaklarning yopishib qolishi, allergiyaga va yallig'lanishiga qarshi tasirga ega. Apigenin, apiin va gerniarinlar ham ichaklarning yopishib qolishiga qarshi tasir qiladi.

**Shifobahsh preparatlari.** Moychechak gulidan (savatchalardan) damlama tayyorlanadi. Savatchalar meda kasalliklarida, tomoq chayqashda ishlatiladigan va yumshatuvchi yig'malar — choylar tarkibiga ham kiradi.

**AChChIQ ShUVOQ (ERMON)— ARTEMISIAE ABSINTHII.** Achchiq shuvoq (ermon) — **Artemisiae absinthii L.**; astradoshlar — **Asteraceae** (murakkabguldoshlar — **Compositae**) oilasiga kiradi.

**Kimyoviy tarkibi.** Achchiq shuvoq o'simligining yer ustki qismi tarkibida 0,5—2% efir moyi (absintol), achchiq glikozidlar (0,09—0,525% absintin, 0,03% anabsintin), xamazulen, proxamazulenogen, artabsin, kahrabo, olma va askorbin kislotalar, karotin, arabsin va boshqa laktonlar, artemizetin flavonoidi hamda oshlovchi moddalar bo'ladi.

Achchiq shuvoq o'simligining gul to'plamida (savatchalarda) ko'p miqdorda (151,0—292,0 mg %), ayniqsa, gullashidan oldin (292,0 mg %), poyasida esa eng kam miqdorda (1—3 mg %) xamazulen to'planadi. Poyaning yuqori qismida joylashgan yosh barglarda (175,0 mg %) poyaning pastki qismida joylashgan barglarga (90,0 mg %) nisbatan 2 baravar ko'p xamazulen bo'ladi.

Efir moyi to'q yashil rangdagi zaharli suyuqlik bo'lib, tarkibida 24,1—35,2% tuyil spirti, keton-tuyon, pinen, kadinen, fellandren, kariofillen, bizabolen, xamazulenogen hamda tuyil spirtining sirka, izovalerian va palmitin kislotalari bilan hosil qilgan efirlari bor.

**Ishlatilishi.** Achchiq shuvoq o'simligining preparatlari ishtaha ochadigan va ovqat hazm qilishga yordam beruvchi dori sifatida hamda jigar, o't pufagi va gastrit kasalliklarida ishlatiladi. o'simlikdan olingan xamazulen bronxial astma,

revmatizm, ekzema kasalliklari va rentgen nuri tasirida kuyganyerlarni davolashda qo'llaniladi.

**Shifobahsh preparatlari.** o'simlikdan damlama, nastoyka va quyuq ekstrakt tayyorlanadi. o'simlik ishtaha ochuvchi va o't haydovchi yig'malar — choylar, meda kasalliklarida ishlatiladigan tabletkalar va achchiq nastoyka tarkibiga kiradi.

**SHIFOBAHSH TIRNOQGUL — SALENDULA OFFICINALIS L.**

Shifobahsh tirnoqgul **— Salendula Officinalis L.**astradoshlar — **Asteraceae** (murakkabguldoshlar — **Compositae**) oilasigakiradi.

**Kimyoviy tarkibi .**Mahsulot tarkibida 7,6—7,8 mg % karotin (karotinoidlarning umumiy miqdori savatchaning tilsimon chetki gullari tarkibida 3% g aetadi), 0,62—0,4% efirmoyi, 0,33—0,88% flavonoidlar (kvertsetin, izoramnetin, izokvertsetinvaboshqalar), kumarinlar (eskuletin, skopoletin, umbelliferon), 3,44% smolalar, 4% gachashilliq, 10,4—11,2% oshlovchimoddalar, 19% gacha achchiq modda kalenden, 6,84% olma, pentadetsid va oz miqdorda salitsilat kislotalar, triterpendiollar (arnidiolvafaradiol), triterpensaponin-kalendulozid hamda alkaloidlar bo'ladi.

Tirnoqgul o'simligining bargi va ildizida glikozidlar bo'ladi. Glikozidlar yig'indisidan kalendulozid S va kalendulozid D glikozidlari ajratib olingan. Kalendulozid S gidro'lizlanganda 2 molekula glyukoza, bir molekula galaktoza va oleanol kislota (aglikoni)ga parchalanadi.

**Shifobahsh preparatlari.** Damlama, nastoyka, „kalendula" surtma dori va kaleflon (gulning tozalangan ekstrakti tabletka holida).

**KATTA ZUBTURUM — PLANTAGOMAJORL.** Katta zubturum — **PlantagoMajorL.** zubturumdoshlar — **Plantaginaceae** oilasiga kiradi.

**Kimyoviy tarkibi.** Mahsulot tarkibida aukubin (rinantin) glikozidi, achchiq, shilliq va oshlovchi moddalar, flavonoidlar (apigenin, gomoplantagenin, lyuteolin va skutellyarein glikozidlari va boshqalar), karotin hamda askorbin, limon kislotalar, faktor T va vitamin K bo'ladi.

**Shifobahsh preparatlari.** Damlama, nastoyka, yangi yig'ilgan, quritilmagan bargning konservatsiya qilingan shirasi, plantoglyutsid preparati, barg briketi.

Barg yo'talda beriladigan choylar — yig'malar tarkibiga kiradi.

Tibbiyotda katta zubturum bilan bir qatorda o'rta hamda lantsetsimon zubturum o'simliklari ham ishlatiladi.

**o'rta zubturum — Plantago media L.** o'simligi bargining har ikki tomoni tukli va bandi kalta bo'ladi.

**Gazanda bargi -Foliaurticae - List krapivo'.** ***o'simlikning nomi.*** Ikki uyli gazanda - Urticae dioicae L. - krapiva.

**Kimiyoviy tarkibi.** 100 - 600 mg % vitamin S, $K_1$, $V_2$, karotinoidlar, pantoten va chumoli kislotalar, 2 - 5% - gacha xlorofill va boshqalar bor.

***Shifobahsh preparatlari.*** Damlama - Infusum foliorum urticae, suyuk ekstrakt. Extractum Urticae fluidum.

Mahsulot ichki azolardan ketayotgan qonni to'xtatuvchi choylar tarkibiga kirada.

**Achchiq taron o'simligimingyer ustki qismi - Herba Polygoni hydropiperis.**

***Kimyoviy tarkibi.*** Mahsulotda 2-2,5 % flavonoidlar (ramnetin, izoramnetin, rutin, kvartsetin, giperozid, kvertsetrin va boshqalar) persikarin flavonoidi, organik kislotalar, vitamin K, oshlovchi moddalar ham bor.

***Shifobahsh preparatlari***. Suyuq ekstrakt - Extractum Polygoni hydropiperis fluidum, damlama - Infusum herbae polygoni hydropiperis, gidropiperin - (flavon glikozidlarning yig'indisi). Anesthesolum - shamchasi tarkibiga kiradi.

**Shaftolibarg toron o'simligimingyer ustki qismi - Herba Poiygoni persicariae**

***Kimyoviy tarkibi.*** Mahsulotda 1% askorbin kislota, ***vitamin K,*** gallat kislota, flobofenlar, flavonoidlar (giperozid, avikulyarin, persikarin, kvertsetin) bor.

***Shifobahsh preparatlari.***Damlama-suyuq ekstrakt.

**Qushtorono'simligimingerustki qismi -Herba poilygoni avicularis**

***Kimyoviy tarkibi***. Mahsulot tarkibida 180 - 887 mg % askorbin kislota,

vitamin K, glikozid avikulyarin. kvertsetin. giperozid, karotin va oshlovchi moddalar bor.

***Shifobahsh preparatlari***. Avikulyarin - (poroshok, tabletka), damlama.

**Qoraqiz o'simligininingyer ustki qismi - Herba bidentis.**

***Kimyoviy tarkibi***. Karotin, vitamin S, efir moyi, shilliq moddalar, flavonoidlar (lyuteolin va uning glikozidlari - tsinorozid, va boshqalar), auronlar, umbelliferon, eskuletin, skopoletin kumarinlari va oshlovchi moddalar bor.

***Shifobahsh preparatlari***. Damlama, Nastoyka.

**Qiriqbo'g'im o'simliginigyer ustki qismi -Herba Equiseti arvensis**

***Kimyoviy tarkibi***. Mahsulotda yaxshi o'rganilmagan 5% gacha ekvizitonin saponini bor, undan tashqari alkaloidlar, flovonoidlar (naringenin, izokvertsetrin, ekviziterin, kemfero'l, apigenin, kvertsetin) vitamin S, organik kislotalar, 25% gacha silikat kislotalari (suvda eriydigan) bo'ladi. Yana oshlovchi va achchiq moddalar ham bor.

***Shifobahsh preparatlari***. Suyuq ekstrakt, qaynatma, damlama. Mahsulot yana siydik haydovchi choy, yig'malar tarkibiga kiradi.

**Oqquray ildizi va mevasi - Radices et fructus psoraleae. *o'simlikning nomi***. Danakli oqquray - Psoralea drupacea.

***Kimyoviy tarkibi***. 12,34% (ildiz) oshlovchi moddalar, furokumarinlar (mevada) 0,1-1,1%; ildizida 0,25-9,57 % psoralen va izopsoralen (angelitsin) olingan.

***Ishlatilishi***. Pes kasalligini davolashda ishlatiladi. Shifobahsh preparat. Psoralen(tabl. spirtli eritma).

**Oqquray ildizi va mevasi - Radices et fructus psoraleae.**

***o'simlikning nomi***. Danakli oqquray - Psoralea drupacea.

***Kimyoviy tarkibi***. 12,34% (ildiz) oshlovchi moddalar, furokumarinlar (mevada) 0,1-1,1%; ildizida 0,25-9,57 % psoralen va izopsoralen (angelitsin) olingan.

***Ishlatilishi***. Pes kasalligini davolashda ishlatiladi. Shifobahsh preparat. Psoralen(tabl. spirtli eritma).

**Sachratqiyer ustki qismi va ildizi - Herba et radicces Cichorii.** ***o'simlikning nomi.*** Cichorium intybas - Oddiy sachratqi.

***Kimyoviy tarkibi.*** Mahsulot tarkibida 49% gacha inulin (yovvoyi holda o'sadiganlarida), madaniy holdagilarning ildizida 60% gacha inulin bor. Yana mahsulot tarkibida bir oz efir moyi, oshlovchi moddalar, holin hamda kumarin glikozid tsikorin bor.

***Ishlatilishi.*** Sachratqi ildizi preparatlari ishtaha ochuvchi, ovqat hazm qilinishini yaxshilovchi, biroz ichni suruvchi va modda almashuvini yaxshilash xususiyatiga ega. Shu bilan birga jigar xastaligida, sariq kasalligida, o't pufagidagi tosh va buyrak kasalliklarida, hamda teri kasalliklarida qo'llaniladi (toshlar, chipqon yaralar va h.o.). Qaynatmasi mikrobga qarshi va ichni qotirish xususiyatiga ega.

Sachratqi ildizi fruktoza olinishda hom - ashyo sifatida foydaliniladi.

Ibn Sino sachratqi sut shirasidan ko'ngil ayniganda, istmada, ko'z yalig'langanda, ich ketishda, ko'zga tushgan oqni ketkazishda foydalangan. Qurutilmagan ildizini yanchib, ilon, chayon va ari chaqqanyerga qo'ygan, hamda podagra kasalligida og'rigan bo'g'inlarga bog'lagan.

Radix Taraxaci - koki ildizi

Radix Taraxacicum herba - koki ildizi va uti

Taraxacum officinale - shifobahsh koki

Asteraceae - astradoshlar.

Ko`p yillik, sut shirali ut usimlik. Ildizi o`q ildiz. Barglari ildizoldi ko'p bargdan tashkil topgan. Bargi odiy, barg plastinkasi lantsetsimon, patsimon kesik bulib, asos kismiga karab torayib boradi. Barg bulaklarining uchi barg asosiga karab yunalgan. Gul uki tuksiz, ichi kovak, tsilindrsimon, uzunligi 15 - 30sm. Gullari savatchaga tuplangan. Savatchaning urama barglari ikki kator joylashgan, gullari tilsimon. Gultojisi besh tishli, tillla rangli, otaligi beshta, onalik tuguni bir xonali, yukorida joylashgan. Mevasi - uchma pista. May oylaridan boshlab to sovuk tushgunga kadar gullaydi.

Arktika va chul tumarlaridan tashkari xammma yerda uchraydi. Asosan

urmon, urmon-chul va chul xududlaridagi utloklarda va xovli boglarda, ekinzorlarda usadi. Xom ashyo Ukraina, Belarus respublikalarida, Voronej, Kursk viloyatlari va Boshkirdistonda tayyorlanadi .

Tayyor xom ashyo ildizdan va ildiz bilan birgalikda usimlikning yer ustki kismidan tashkil topgan. Ildizi uk ildiz, shoxlanmagan yoki kam shoxlangan, ildiz uzunasiga burishgan, murt, yoshlarining ustki tomoni kungir, karilarninki esa kungir rangli bulib, uzunligi 10-15 sm, yugonligi 0,3 - 1,5 sm. Ildizi xidsiz, achchik mazaga ega. Sovuk yul bilan yumshatilgan ildizni glitserin va spirt aralashmasiga bir sutka solib kuyib,kundalangiga va uzunasiga kesib preparat tayyorlanadi va mikroskop ostida kuriladi. Ildiz tashki tomondan probka bilan koplangan. Probka kavatining ichkarisida pustlok parenximasi, floema, markazida esa ksilema joylashgan. Floema bilan ksilema urtasida kambiya bor. Floemada elaksimon naylar, aylana buyicha joylashgan yumalok sut naylar naycha shaklida shoxlangan va bir-biri bilan birlashgan xolatda uchraydi.

Ildiz tarkibida taraksatsin va taraksatserin achchik glikozidlari, taraksero’l, taraksostero’l, inulin, kuachuk, yog va boshka moddalar buladi.

Shifobahsh preparatlari ishtaxa ochish, ovkat xazm kilish jarayonini yaxshilash uchun xamda ut xaydovchi dori sifatida ishlatiladi.

Kaynatma, ildizning kuyuk ekstrakti, ishtax ochuvchi, ut xaydovchi va meda kasalligida ishlatiladigan choylar-yigmalar tarkibiga kiradi.

## Xulosa

Xorazm viloyati vohasi turli доривор moddalarning manbai hisoblangan shifobaxsh o'simliklarga nihoyatda boy diyordir. Xorazmda yovvoyi holda o'sadigan o'simliklarning mingdan ortiq turi mavjud bo'lib , 200dan ortiq turning dori-darmonlik xususiyati aniqlangan.

Ulardan 50 dan ortiq turi ilmiy tabobatda ishlatilmoqda,qolganlari esa xalq tabobatida muvaffaqiyatli qo'llanilmoqdda.

Sintetik kimyoning jadal rivojlanishi va aqsaryat dori-darmonlarning kimtoviy yo'l bilan tayyorlanishiga qaramasdan 45% shifobahsh pereparatlar shifobaxsh o'simliklardan tayyorlanadi,shulardan 80% yurak qon-tomir sistemasi dorilaridir.

Binobarin ,xalq tabobatida turli xastaliklarga qorshi tabiat in'om etgan giyohlardan foydalanish bizga qadimdan ma'lum. Zero, o'simlik dunyosini insonlar tamonidan qo'llash ko'p asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib, takomillashib kelgan va ular hozir olimlar tamonidan to'ldirildi va amliyotda asoslab berildi. Xalq tabobatida va ilmiy tibbiyotda shifobahsh o'simliklardan har xil kasalliklarni davolashda keng foydalaniladi.Bulardan ko'lari madaniylashtirib, alohida er maydonlarida, plantatsiyalarda ekilib, parvarish qilib ko'paytirilmoqda

Ularning ko'pchiligi yovvoyi holda o'tloqlarda, tog' yon-bag'irlarida, qir-adirlarda, jarlarda, temir yo'l-yoqalarida, ariq-daryo bo'ylarida, ekinzor va polizlarda beor o'sadilar. Insonlarga xuddi ''mana meni vaqtida yig'ishtirib ol va to'g'ri foydalan'' deya o'z xizmatini taqdim etayotgandek bo'ladilar.

Sintez yo'li bilan olingan har bir kimyoviy shifobahsh perparatlarni uzoq vaqt mobaynida uzluksiz ravishda qabul qilish inson organizmida turli noxush o'zgarishlarning, ayniqsa, keying vaqtda allergic kasalliklarning ko'payib ketishiga sabab bo'lmoqda. O'simliklar esa inson organizmida sintetik dori vositalariga qaraganda bo'lakcha ta'sir ko'rsatadi. Amaliyotda qo'llaniladigan shifobaxsh giyohlarning bemorga ko'proq mahalliy samarali ta'sir ko'rsatishi tufayli ular inson mutloqa bezarardir. Shuning uchun shifobahsh o'simliklarga va ulardan olinadigan dorilar preparatlarga-fito preparatlarga bo'lgan talab va ehtiyoj nafaqat

mamlakatimizda, balki butun dunyoda ortib bormoqda.

Xorazm viloyatida o’sadigan mingdan ortiq tur o’simliklar orasidan qadimgi hakimlar ishlatib kelgan, tabobatda ham qo’llanilayotgan ayrim o’simliklarning shifobaxsh ta’siri, qanday kasalliklarda qay tariqada ishlatilishi to’g’risida ma’lumot berilgan.

Xorazm viloyati hududida keng tarqalgan shifobaxsh o’simlik turlaridan unumli va oqilona foydalanishni to’g’ri yo’lga qo’yish, ularning qisqa botanic ta’rifi, gepgrafik tarqalishi, qo’llanilishi, foydalanish muddtlari, kimyoviy tarkibi hamda shifobaxsh giyoh boyliklarini muhofaza etish yo’llari to’grisidagi ma’lumotlar bayon etilgan.

Shuningdek, xalq tabobati va ilmiy tabobatda qo’llanilishi, turli xastaliklarni davolashda ishlatiladigan shifobaxsh giyohlardan oddiy va murakkab yig’malar tayyorlash, ularni is’temol etish bilan tanishtiriladi.

Shifobaxsh o’simliklar boyliklaridan foydalanishda o’simlik guruhlarining ekologik muvozanatiga ta’sir etmaslik uchun ularni yig’ishtirib olish va tayyorlash qoidalariga rioya qilish lozim. Muvozanat buzulmasa o’simliklar yo’qotgan massalarini oson va tez qayta tiklaydi.O’simliklar xom ahsyolarni yig’ishtrishda turlarning biologik xususiyatlari hisobga olmasdan, oqilona foydalanmaslik, o’simlik turlari handa boyliklarini qayta tiklashga juda katta ziyon keltiradi.

## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Еленевский А. Г, Соловьева М. П, Тихомиров В. Н. Ботаника Систематика высших, или наземных растений. – Москва, - 2001. - 429 с.

2. Зоҳидов Ҳ. Шифо хазинаси. –Тошкент, - 2000. - 176 б.

3. Мухторов М. Минг дардга минг даво. Қарши: Насаф, 2009.-271 б.

4. Набиев М. Чотқол неъмати.- Тошкент: Ибн Сино, 2004.-173 б.

Определитель растений Средней Азии. Т. II, - Тошкент. -1971. - 362 с.

5. Определитель растений Средней Азии. Т. VI, - Тошкент. – 1993. - 692 с.

6. Определитель растений Средней Азии. Т. VII, - Тошкент. – 1983. - 414 с.

7. ПратовЎ.П., М.М. Набиев. Ўзбекистон юксак ўсимликларининг замонавий тизими. – Тошкент. – 2007. - 62 б.

8. Пратов Ў.П., Юлдашев А.С. Яшил дунё мўъжизалари. - Тошкент, Ўқитувчи, 2011. - 120 б.

9. Пратов Ў.П., Юлдашев А.С., Бахромов А.Д. Атлас Ўзбекистон табиати.- Тошкент.-2011.191 б.

10. Тойжонов К., Мелибоев С., Махмудов В. Ўзбекистон юксак ўсимликлари туркум номларининг изоҳли луғати.- Тошкент: Фан, 2008.-151 б.

11. Холматов Х.Х., Ахмедов У.А., Холматов Р.Х. Сабзавот, мева ва зиравор ўсимликлар овқатми ё дорими. - Тошкент: EXTREMUM PRESS, 2011. 175 б.

12. Холматов Х.Х. Доривор ўсимликлар. - Тошкент: Ибн Сино, 1994. - 365 б.

13. Холматов Х.Х., Қосимов А.И. Русча-лотинча-ўзбекча доривор ўсимликлар луғати.- Тошкент: Ибн Сино, 1992.-199 б.

14. Холиқов К. Ўзбекистоннинг жанубидаги доривор ўсимликлар. - Тошкент: Мехнат, 1992. - 76 б..

15. Ҳамидов А., Набиев М., Одилов Т. Ўзбекистон ўсимликлари аниқлагичи. - Тошкент. – 1987. - 327 б.

16. Ҳамидов П., Шукруллаев Е., Тарасова Ю., Қурбонов А., Умрзоқов. Ботаника асослари. – Тошкент. – 1990. - 318 б.

17. Черепанов С.К. Сосудистые растения России и сопределных государств. – СПБ.: Мир и семья, 1995.-992 с.

18. Яковлев Г. П. Ботаника. – Москва. – 2001. - 647 с.